

6-22-2018

ON ENGLISH INTERPRETATION OF UZBEK TERMS RELATED TO DRESS-MAKING

Nargiza Arifovna Kadirova

Teacher at Foreign languages department, Bukhara state university

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu>

Recommended Citation

Kadirova, Nargiza Arifovna (2018) "ON ENGLISH INTERPRETATION OF UZBEK TERMS RELATED TO DRESS-MAKING," *Scientific reports of Bukhara State University*: Vol. 1 : Iss. 3 , Article 4.
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol1/iss3/4>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific reports of Bukhara State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

УДК 81'276.6[=512/133/=11]:001.53

BICHISH-TIKISH HUNARIGA OID O'ZBEKCHA ATAMALARNING INGLIZCHA TALQINI XUSUSIDA

ОБ АНГЛИЙСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ УЗБЕКСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ, ПРИМЕНЯЕМОЙ В ШВЕЙНОМ ДЕЛЕ

ON ENGLISH INTERPRETATION OF UZBEK TERMS RELATED TO DRESS-MAKING

Kadirova Nargiza Arifovna

*Teacher at Foreign languages department, Bukhara state university***Tayanch so'zlar:** san'at, bichish-tikish, hunarmandchilik, qadimiy, amaliy san'at, kashtado'zlik, to'qiladigan, milliy, bezak, termin, tarjima.**Ключевые слова:** искусство, кройка и шитьё, ремесленничество, древний, прикладное искусство, вышивка, вязанный, национальный, украшение, термин, перевод.**Key words:** art, dress-making, craftsmanship, ancient, applied art, embroidery, knitted, national, decoration, term, translation.**Аннотация***Maqolada o'zbek milliy hunarmandchiligi turlaridan bo'lgan bichish-tikish hunariga oid ba'zi atamalarning inglizcha tarjimasida fikr yuritilgan.***Аннотация***Статья посвящена общему описанию ремесел, распространенных на территории Узбекистана, и переводу отдельных терминов, относящихся к кройке и шитью.***Abstract***The article is dedicated to general description of crafts in the territory of Uzbekistan and to the translation of some terms related to the dress-making, one of the types of the crafts.***Kirish.** O'zbek milliy hunarmandchiligiga aloqador atamalarning ko'pchiligi turli adabiyotlarda turlicha tarjima qilingani kuzatiladi. Ulardan ba'zisi original, ya'ni o'zbek tilida hech o'zgarishsiz, qanday bo'lsa, shundayligicha berilsa, ayrimlari biroz o'zgartirilgan holatda, rus yoki ingliz tillariga xos talaffuz ohanglariga moslab berilgani ko'zga tashlanadi.

Yagona ma'noviy mazmunga ega bo'lgan atamalarning turlicha ishlatilishi berilgan mavzuga materiallar axtarish va ularni tahlil qilishni qiyinlashtirib, chalkashliklarni vujudga keltirishi mumkin. Shu tariqa, ushbu soha vakillari (umuman O'zbekistonning boy tarixiy merosiga qiziqadigan kishilar) ishlarini osonlashtirish uchun o'zbek milliy hunarmandchiligi va uning bo'limlari atamalarini chuqur o'rganishga to'g'ri keladi. Zero, bu o'zbek hunarmandchiligi atamalarining ingliz tilidagi ixtisoslashtirilgan lug'atini yaratish va chop etish uchun zamin yaratishi, shubhasiz.

O'zbekiston azaldan ilm-fan, san'at va madaniyat, hunarmandchilikning yirik markazlaridan hisoblanadi. Buyuk ipak yo'lining markazida joylashib, Sharq va G'arbning eng ajoyib qirralarini o'zida saqlab kelayotgan bu tarixiy va muqaddas maskanda hunarmandchilikning juda ko'p nodir namunalari shakllangan va rivojlanib kelgan.

O'tmishda ayrim davlat hukmdorlari ilm-fan va hunarmandchilik mamlakat rivojini ta'min-laydigan asosiy omillardan biri ekanligini inobatga olib, uning rivojlantirishini har tomonlama qo'l-lab-quvvatlashgan. Buning uchun hatto butun dunyodan olim va ustalarni Buxoro, Samarqand, Xiva va Qo'qon shaharlariga olib kelishgan. Ular uchun barcha zarur shart-sharoitlarni, qulaylik-larni yaratib berishgan. Shu tariqa yurtimizda ilm-fan qatorida hunarmandchilik tarmoqlari ham rivojlanib kelgan.

SOCIAL AND BEHAVIORAL SCIENCES: LINGUISTICS

O'zbek amaliy san'ati o'ndan ziyod yirik guruhlarga ajraladiki, har bir guruh o'z o'rnida yana ichki bo'limlarga taqsimlanib ketishidan tashqari, o'ziga xos terminlarga egaligi bilan ham e'tiborni tortadi.

Bichish-tikish hunari – o'zbek ayollari o'rtasida keng tarqalgan hunarmandchilik turlaridan biri. Bu hunar turiga kashtado'zlik, to'ndo'zlik, do'ppido'zlik, ko'rpado'zlik va albatta, kiyimdo'zlik kabilar mansubdir.

O'rta asrlarda kashtado'zlik buyumlari uy-ro'zg'orda keng qo'llanilgan. Har bir shaharning o'ziga xos naqsh uslubi mavjud bo'lgan. Unda kiyimlarga, so'zana kabilarga kashtalar tikilgan. To'ndo'zlik, do'ppido'zlik, ko'rpado'zlik hunarlari xalqning kundalik ehtiyojlarini qondirishda keng o'rin tutgan.

Har bir hunar turi o'ziga xos bo'lib, tarixiy- madaniy, ijtimoiy-diniy ta'sirlar natijasida bir necha asrlar mobaynida shakllangan. U yoki bu milliy hunarmandchilik turning shakllanishida xalq orasida aynan shu hunar turiga tegishli atamalar vujudga kelgan.

Boshqa milliy hunarmandchilik turlariga o'xshab, bichish-tikish ham turli davrlarda rivojlanib kelgan va o'sha davrga xos hukmdor mafkura, mamlakat va xalq tarixi, urf-odatlar, dunyoqarashi, tili bilan uzviy bog'liqlikda taraqqiy etgan. Ya'ni har bir o'tgan asr, so'zsiz, hunarmandchilik tarixida ma'lum iz qoldirgan.

Qadimiy hamda murakkab hunar hisoblangan bichish-tikish o'zining boy atamalariga egadir. Ularning inglizchaga tarjima qilinishi, uch ko'rinishda kechganligi kuzatiladi. Birinchisi – ingliz tilida o'xshashi mavjud bo'lmagan, original “o'zbekcha” talaffuz qilinadigan atamalardir. Bunga “Atlas” terminini misol keltirish mumkin.

Atlas (inglizchada – *atlas*) – qadimiy mahalliy matolardan biri. Abrbandi usulida rang-barang naqshlar bilan bezatiladi, tandasi ham, arqog'i ham tabiiy ipakdan to'qiladi [4]. O'zbek atlaslari rang-barang nafis gullarga boyligi, bu gullar bir-biri bilan uyg'unlashib, matoda yaxlit go'zal bir naqsh bag'ishlashi jihatidan e'tiborni tortadi. Mayin, yoqimli ushbu mato undan kiygan har qanday insonga manzur bo'lishi tabiiy. Vodiy atlaslarini ko'rgan kishi, so'zsiz, o'zbek ayolini ko'z o'ngida gavdalantiradi.

Inglizcha matnlarda atlas atamasining aynan saqlangani, tarjimasiz berilgani kuzatiladi: “Rich people of the 19th century had bought velvet, silk, *atlas*, finest clothes of different colours”[1].

Adras inglizchada aynan saqlanadigan milliy mato atamalaridan biridir. To'qimachiligimiz-da abr gulli, tandasi ipakdan, arqog'i ipdan to'qilgan qalin mato adras deb nomlanadi[5]. Ushbu matoning o'ziga xos guli faqatgina xalqimiz orasida uchraydi. Ipak iplar tabiiy mahsulotlardan olingan ranglar bilan bezatiladi. Adrasdan, asosan, kiyim-kechak, ko'rpa-to'shaklar tikiladi. Marg'ilon adraslarining dong'i butun dunyoga ketgan. U haqda inglizcha matnlardan birida shunday axborot berilganiga guvoh bo'lish mumkin: “*Adras* of superior quality is imported from Bukhara and Khokand”[7].

Jiyak, zeh (inglizchada ham *jiyak, zeh* tarzida beriladi) – ensiz tasma bo'lib, odatda, kiyimlarning oldiga, yoqa, yeng, cho'ntak, etak chetlariga, do'ppining kizagiga, kashtali bezak sifatida tikiladigan buyumlardan biridir [5]. Jiyaklar, asosan, rang-barang iplardan to'qiladi. Ular, albatta, bezak sifatida ishlatiladi va har xil shakl hamda turlarga egaligi kuzatiladi. Jumladan, qo'lda to'qiladigan sodda jiyak, bir necha kishi tomonidan to'qiladigan rangdor, gulli murakkab jiyak, maxsus dastgoh (jiyak do'kon)da to'qiladigan jiyak, matoga kashta tikib tayyorlanadigan jiyak va boshqalar shular sirasiga kiradi. U haqda inglizcha matnlardan birida shunday ma'lumotni o'qish mumkin: “Master printers produced metre-length printed cloth from...small finishing *braid (jiyak)*, etc”[8].

Kavush (inglizchada ham *kavush*) – mahsi bilan yoki yalang oyoqqa kiyiladigan charm poyabzal[4]. Bunday oyoq kiyimi turi ko'proq Osiyoning ba'zi xalqlariga, shu jumladan, o'zbeklarga xos hisoblanadi. Kavush arzon va qulay bo'lganligi sababli, odatda, uy yuzasida kiyiladi. Bu milliy oyoq kiyimi nomi ham termin sifatida inglizcha matnlarda aynan berilgani ko'zga tashlanadi. Jumladan: “The most popular footwear was *kavush* (shoes with high heels and twisted nose”[1].

SOCIAL AND BEHAVIORAL SCIENCES: LINGUISTICS

Mahsi (inglizchada ham *mahsi*) – poyabzal turi. Tagi tekis va yupqa, ko`njli bo`lib, yumshoq charmdan tikiladi. Mahsining ko`nji va ustki qismi turli naqshlar bilan bezatiladi. Mahsi musulmon xalqlari orasida qadimdan keng tarqalgan. Oyoqni sovuqdan asraydi, boldirni issiq tutadi[4]. Terining xillariga ko`ra mahsilar nomlanishi amirkon mahsi, bedana mahsi, go`spandi mahsi (qo`y terisidan), xirom mahsi, bulg`ori mahsi (mol terisidan) tarzida o`zaro farqlanadi. Bu milliy oyoq kiyimi nomi ham termin sifatida inglizcha matnlarda aynan saqlangani kuzatiladi: “Main type of national footwear kinds for old persons is still considered soft *mahsi* (boots), which were worn with rubber galosh of Central Asian style”[1].

Chakmon (inglizchada ham *chakmon* ing.da) – erkaklarning milliy ust kiyimi, astarsiz to`n bo`lib, yoqali va oldi ochiq, uzun ko`rinishda tayyorlanadi[5]. Movut va qalin matodan tikiladi. Chakmon, asosan, sovuq havoda kiyiladi. Chakmon turkiy xalqlarga xos ust kiyimi hisoblanadi. Inglizcha matnlarda uning nomiga aynan duch kelish mumkin: “Men wear loose shirts, trousers, jackets and a long robe called a *chakmon* which is sometimes open and sometimes buttoned and has sleeves sewn into it”[6].

Chopon (inglizchada ham *chopon*) – tik yoqali, oldi ochiq, uzun ustki kiyim turi bo`lib, odatda, avra-astarli, ichiga paxta solib qaviladi. Beqasam, kimxob, baxmal, shoyi, satin, chit kabi matolardan tikiladi[4]. Chopon ayollar, erkaklar va bolalar uchun mo`ljallanadi. Chopon kundalik kiyim sifatida kiyiladi, bundan tashqari, to`y bolaga, kuyovga ataladi. Hatto azada motam kiyimi sifatida ham kiyish udumi saqlangan. Mana shu jihatiga ko`ra, cho`pon marosimsiy mohiyat kasb etib, milliylik xususiyati bo`rtib turadi. “*Chopons*, made of beqasam was popular all over Uzbekistan”, – deyiladi u haqdagi etnografik matnlardan birida[1].

Bichish-tikishga oid yana shunday atamalar guruhi ham borki, ular ingliz tilida o`zbek tilidagi ayrim tovush va harflar bo`lmaganligi sababli, inglizcha ohang bilan qanday talaffuz qilinsa, o`sha ohangda ifoda etilgan. Masalan, bunga **beqasam**, **beqasab** so`zini misol qilish mumkin. Bu so`z inglizchada **bekasam** yoki **bekasab** tarzida beriladi. Ma`lumki, beqasam – yo`l-yo`l gulli pishiq mato; tanda ipi ipak, arqog`i ipdan to`qiladi. Arqog`i ipi tanda ipidan yo`g`onroq bo`lganligi uchun mato yuzasida ko`ndalang chiziqlar (g`adur-budurlik) hosil bo`ladi. Buxoro va Samarqandda “olacha” nomi bilan mashhur. Undan ko`rpachalar, ayollar va erkaklar to`ni yoki kamzuli tikiladi. Beqasamning olti xil: katak, marmar, Buxoro, besh kashta, bayroq kabi turlari mavjud. Inglizcha matnlarda uning ba`zan “**bekasam**”, ba`zan “**bekasab**” ko`rinishida ifoda etilgani kuzatiladi. masalan: “The essential part of any set of men clothes was quilted robe of handmade fabrics – paper or half-silk *alacha*, *bekasab*”[1].

Kultapo`shak (inglizchada *kultapushak*) – ayollarning qadimiy bosh kiyimi. Yosh qizlar kiyadigan kultapo`shaklar rangdor, chiroyli matolardan, katta yoshdagilarga kulrang, ko`k, qora, ya`ni odmiroq matodan tikilgan [4]. O`rta Osiyo ayollari kiyadigan kultapo`shakning kizak qismi enli, cheti jiyakli, boshga kiyiladigan qismi dumaloq do`ppi shaklida, avra-astarli bo`ladi. Orqa tomonida yengga o`xshash qismidan soch o`rami o`tkaziladi. Inglizcha matnlarda bu buyumning nomiga ham duch kelindi: “According to Sukhareva the lachak of the Uzbeks of Samarkand and Nurata was merely a rectangle of muslim cloth wrapped over a *kultapushak* and under the chin, tightly covering the cheeks, and concealing the hair and the chest”[9].

Do`ppi (inglizchada *duppi*) – yengil bosh kiyimi. Do`ppi qadimdan milliy kiyim turiga aylangan. Boshqa xalqlar do`ppilaridan o`zbek do`ppilari o`ziga xos shakli, bezagi bilan farqlanadi[4]. Do`ppi, asosan, baxmal-u sidirg`a shoyi, satin ip, ipak, zar iplar bilan kashta tikib tayyorlanadi. Tayyorlangan joyi, mo`ljallangan kishilarning yoshi va jinsi, shakliga ko`ra do`ppilar xilma-xil va rang-barangdir. Obligatory additions to what men wear are a skullcaps (known as a *duppi*)...[6].

Inglizchada “do`ppi” so`zi “duppi” tarzida talaffuz qilinadi va shu talaffuzga mos berilishi kuzatiladi.

Belbog` (inglizchada *belbog*) – belga bog`lanadigan to`rtburchak shakldagi mato, milliy kiyimning tarkibiy qismi. Erkaklar kiyimi (to`n, yaktak va boshqalar) ustidan belga bog`lanadi[4]. Gulli, gulsiz matolar (bo`z, shoyi, atlas)dan tayyorlanib, kashta bilan bezatiladi. Marosimlarda, jumladan, to`yda kuyovga to`n kiydirganda, azada – erkaklar va ayollar ham

SOCIAL AND BEHAVIORAL SCIENCES: LINGUISTICS

yaqin kishilaridan biri vafot etganda belga bog'lanadi. Bundan tashqari, belbog' uzoq safarlarda dasturxon yoki sochiq vazifasini ham bajargan.

Belbog' shevada "chorsi" deb yuritiladi. Inglizchada bu ikkala atama teng qo'llanganiga guvoh bo'lish mumkin: "The gird shirts and robes they used girdles: sashes, *belbog* (type of girdle), *chorsi* – waist shawls, leather and velvet girdles[1].

So'zana (inglizchada *suzani*)– sidirg'a matoga gul tikib tayyorlangan bezak buyumi[5]. Inglizcha matnlarda uning nomi shunday uchraydi: "Although each Central Asian town had its own style, the place of manufacture of many *suzanis* cannot be identified with certainty, simply because not enough is known"[2].

Bichish-tikish milliy san'atimizga daxldor yana shunday atamalar ham borki, ular tarjima qilinayotgan tilda analogi (o'xshashi) mavjud bo'lgan atamalardir. Lekin ularni hamisha teng, muqobil holatda qabul qilish qiyin. Negaki, ular baribir ma'no jihatdan biroz bo'lsa-da, farqlanib turadi. Masalan, milliy mato nomlaridan bo'lgan "**Baxmal**" atamasi inglizchada "*velvet, velvteen*" deb tarjima qilinadi. Mayin, silliq patli gazlama turi bo'lgan baxmal matosi patlari tabiiy yoki sun'iy ipakdan, zamini ip yoki kanopdan to'qiladi. Bu mato yurtimizda Buxoro va Samarqandda qadimdan ishlab chiqarilgan. Baxmallardan kiyim-kechak, do'ppi, so'zana, gulko'rpa, zardevor, dasturxon, ko'rpa va ko'rpachalar tayyorlanadi, mebellarni qoplashda, interyerlarni bezashda ishlatiladi[3]. Ta'kidlanganidek: "In the beginning of the XXth century *velvet*, silk or simple cotton fabrics were used for making overcoats"[1].

Kashta (inglizchada *embroidery*) –bezak turi; qo'lda yoki mashinada belbog', do'ppi, gulko'rpa, palak, so'zana, kamar, mahsi kabi buyumlarga yoki va boshqa narsalar ustiga tikiladi[3]. Kashtada turli handasiy shakllar, islmiy va gullar aks ettiriladi. Jumladan: "In the XIXth century, uzbek women produced fabulous *embroidered* hangings, bed covers, wrapping clothes, table covers and prayer mats for their households and their daughters' dowries"[10].

Ro'mol (inglizchada *kerchief*) – ayollar bosh kiyimi, to'rtburchak shakldagi mato. Jun, ip, ipak, sun'iy tola, va boshqalardan to'qiladi[4]. Uning turlari xilma-xildir. Masalan, doka ro'mol, sholro'mol, tivit ro'mol kabi. Musulmon ayollari bu bosh kiyimini har doim taqib kelishgan. Qayerda va kim tomonidan taqilishi jihatdan ro'mol turlanadi.

Inglizcha matnlarning birida ro'molning "**rumol (kerchief)**" ko'rinishida o'z muqobili bilan berilgani ko'zga tashlanadi: "Most traditional women headgear – square or rectangular shawl – *rumol (kerchief)*, which could be twisted in many ways[1].

Xuddi shunday holat "**nimcha**" va "**telpak**" so'zlarining inglizcha tarjimada berilishida ham kuzatildi: "Nimcha" yana "Halat-mursak" atamasi bilan izohlangan holat ham uchraydi: "*Halat-mursak, camisole or waistcoats (nimcha) were worn over the dress [1].*

Ma'lumki, "**nimcha**" inglizchada "*waistcoats*" deya tarjima qilinadi. Nimcha yengsiz kalta kiyim, astarsiz yoki avra-astarli bo'ladi. Ayollar ko'ylak ustidan kiyadilar. Duxoba va turli xil movut va parchalardan tikiladi. Ba'zan erkaklar ham nimcha kiyishi mumkin. Lekin nimchalar umumiy nom bilan atalsa-da, har bir xalqqa xos milliy bezagi jihatidan baribir farqlanib turadi.

Shuningdek, "**telpak**" inglizchada "*fur scull-cap*" deya tarjima qilinishi ma'lum. Telpak issiq, asosan, tukli bo'lib, erkaklarning bosh kiyimi hisoblanadi. Bunday bosh kiyim, asosan, O'rta Osiyoga xosdir[4]. Telpaklar qo'y va boshqa hayvonlar terisidan tikiladi. Sovuqdan boshni himoyalovchi tabiiy materialdan tayyorlanganligi bilan mashhurdir.

"Telpak" so'zi inglizcha tarjimada o'z muqobili "round fur cap" termini orqali berilgani kuzatildi: "In winter *telpak (round fur cap) was worn over tubeteyka. Fur cap in a form of cone was popular in Bukhara oasis*"[1].

Xulosa qilib aytganda, milliy hunarmandchilik atamalarini tarjima qilishning uch turi mavjud ekan. O'zbek hunarmandchiligi bilan bog'liq bichish-tikish atamaları inglizchaga aynan yoki muqobil variantda tarjima qilinishi kuzatiladi.

REFERENCES

1. Sodiqova N. O'zbek milliy kiyimlari. – T.: Sharq, 2003. – B. 11.

SOCIAL AND BEHAVIORAL SCIENCES: LINGUISTICS

2. **Caroline Stone.** Splendid suzanis. Journal Saudi Aramko World, 2003. – P. 6-13.
 3. **Morozova A.** O‘zbekistonda yo‘rmado‘zlik. – T., 1960. – B. 45-46.
 4. **O‘zbek tilining izohli lug‘ati.** – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. 25-tom.
 5. **Bulatov S.S., Ashirova M.O.** Amaliy san‘at qisqacha lug‘ati. – T., 1992. – 47 b.
 6. **Gabriele Mentges, Lola Shamukhitdinova.** Modernity of tradition: Uzbek Textile Culture Today. 2013. – P.139.
 7. **David Gillard, Kenneth Bourne, Donald Cameron Watt.** British documents on foreign affairs – reports and papers from Foreign Office. Volume 12. 1984. – P. 249-271.
 8. **Ahmad Hasan Dani, Vladimir Masson** – History of civilization of Central Asia: towards the contemporary period: from the mid-nineteenth to the end of twentieth century. 2005. – P. 658.
 9. **Sukhareva, O.A.** Ancient features in the forms of the Headgear of the Peoples of Central Asia, Central Asian Ethnographic Collection, 1954. – P. 121-124.
 10. **Marla Mallmett.** Contemporary Uzbek Suzanis. 2004. – P. 11-14.
-